

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Х.А.Абдурасулов	
Экономическая история Туркестана в "Большой игре" Питера Хопкирка	338
Sh.S.Shodiyeva	
Afg'oniston matbuotining Buxoro amirligi hududiga tarqalishi tarixiga doir.....	343
Sh.M.Abdusatorov	
Gastroturizm sohasini rivojlantirishning ba'zi nazariy masalalari.....	348
O.B.Nizomiddinov	
XX asrning 20-yillarida Farg'ona viloyatida ta'lim tizimi (Farg'ona viloyat davlat arxividagi hujjatlar misolida)	353
G'.A.Raxmonov	
Farg'ona vodiysida suv xavfsizligi borasidagi yondashuvlar	358
M.Y.Umarova	
Temuriy Malika Gavharshodbegim tug'ilgan oila va uning Amir Temur davridagi hayoti	361
S.B.Yuldashev	
The Faragina – a regular military structure in the Abbasid's army	366
X.X.Mamajonov	
Turk tarixshunosligida Amir Temur tarixining o'rganilishi va rivojlanish bosqichlari.....	373

ADABIYOTSHUNOSLIK

D.Sh.Kodirova	
O'zbek tili konchilik terminlarining terminografiya talablari asosida terminologik lug'atlarga kiritilishi	377
N.T.Zaylobova	
Muloqot xulqining oliy ko'rinishi	384
D.O.Xamidova	
Luqmon Bo'rixonning "jaziramadagi odamlar" romanida ruhiyat	389
A.N.Nasirov	
Xarakter evolyutsiyasining ruhiy-psixologik asosi	396

TILSHUNOSLIK

Ф.Ш.Алимов, Р.А.Фахрутдинова	
Лингвистические факторы формирования письменной речи в условиях цифровизации.....	402
Талантбек кызы Альбина, К.С.Шакиров, Э.И.Ибрагимова	
Формирование информационно-коммуникационные готовности у педагогов дошкольного образования в условиях непрерывного профессионального образования	408
O.Q.Sobirov, Sh.I.Shokirov	
Ingliz tilida qurilish terminlarini semantik xususiyatlari.....	417
D.A.Ganiyeva	
To'liqsiz va bog'lama fe'llarda sinkretizm va polifunksionallik.....	422
A.M.Mamarasulov	
Leksik sistemaga onomasiologik yondashuv.....	426
N.Xamidov	
Turli tizimli tillardagi antroponimlarda erkalash-kichraytirish ma'nolarining ifodalanishi	432
C.Э.Саидова	
Мулоҳизаҳо оиди лингвистикаи ареалӣ дар мисоли шеваҳои аҳолии сурхондарёи шарқӣ.....	437
Г.М.Мансурова	
Проблемы понимания на слух у студентов технических вузов	441
Ф.А.Темирова	
Методологический анализ подходов к составлению идиоматического словаря на примере HSG: сравнение, особенности и рекомендации	445
Ш.М.Султонова, Г.Ф.Нишонова	
Теоретические предпосылки изучения антропонимов в переводческом аспекте.....	449

**TURLI TIZIMLI TILLARDAGI ANTROPONIMLARDA ERKALASH-KICHRAYTIRISH
MA'NOLARINING IFODALANISHI****ВЫРАЖЕНИЕ УМЕНЬШИТЕЛЬНО-ЛАСКАТЕЛЬНЫХ ЗНАЧЕНИЙ В
АНТРОПОНИМАХ РАЗНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКОВ****EXPRESSION OF DIMINUTIVE MEANINGS IN ANTHROPONYMS OF DIFFERENT
SYSTEM LANGUAGES****Nodirbek Xamidov¹**¹Andijon Chet tillar instituti stajyor tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada turli tizimli tillardagi antroponimlar tarkibida erkalash-kichraytirish ma'nolarining ifodalanishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, mazkur izlanish davomida taqqoslanayotgan tillardagi egizaklar ismlarining lingvistik va ekstralingvistik omillari lingvokognitiv hodisa sifatida ham tadqiq qilinadi. Ismlarning ekstralingvistik xususiyatlariga oid muommolar tilshunoslikda kam o'rganilgan hodisalardan bo'lib, tahlillar natijasida egizaklarga ism qo'yish jarayoni har-bir xalqning o'ziga xos milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha shakllanishi til sohiblari milliy ongida munosib tarzda anglatadi degan yakuniy fikrga kelindi.

Аннотация

В данной статье рассматривается уменьшительно-ласкательные значения в составе антропонимов разносистемных языков. В ходе данного исследования также исследуются лингвистические и экстралингвистические факторы имен близнецов в сопоставляемых языках, как лингвокогнитивные явления. Проблемы, связанные с экстралингвистическими особенностями имен, являются одними из малоизученных явлений в лингвистике, и в результате анализа был сделан вывод, что процесс именования близнецов адекватно отражает различное формирование каждого народа в зависимости от национальных особенностей носителей языка.

Abstract

This article discusses the expression of diminutive meanings as part of anthroponyms in different systems languages. Our research consists of researching several problems, the linguistic and extralinguistic factors of twins' names in the form of a linguocognitive phenomenon. Problems associated with extralinguistic features of names are one of the little-studied phenomena in linguistics, and as a result of the analysis it was concluded that the process of naming twins adequately reflects the different formation of each nation, depending on the national characteristics of native speakers.

Kalit so'zlar: atoqli otlar, antroponimlar, erkalash ma'nosi, kichraytirish ma'nosi, egizaklarning ismlari, grammatik usul, semantik usul.

Ключевые слова: собственные имена существительные, имена, значение ласки, значение уменьшительного, имена близнецов, грамматический метод, семантический метод.

Key words: proper nouns, names, meaning of caress, meaning of diminutive, names of twins, grammatical method, semantic method.

KIRISH

Yurtimiz qadimdan buyuk sarkarda va olimu-fuzalolar uchun ilm-fan, madaniyat va ma'rifat o'chog'i bo'lib kelganligi barchamizga ma'lum. Ushbu zamindan Al Xorazmiy, Imom Al-Buxoriy, Ibn-Sino, Abu Rayxon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab juda ko'plab allomalar yetishib chiqqan bo'lib, bugungi kunda erishgan yutuqlarimizning zamirida ularning xizmatlari beqiyos, desak adashmaymiz.

Zamonamiz yoshlari jahon talablariga javob beradigan, barcha mamlakatlarning integratsiya jarayonlarida boshqa davlatlar bilan to'laqonli teng bo'lish, fan-texnika yutuqlaridan to'liq foydalanish va mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash uchun bilim va tajribaga ega. Shu bois yoshlarimizning chet tillarni mukammal o'rganishlari bugungi kunning dolzarb talabidir. Bu esa ingliz tilining fonetika, grammatika va leksikasini mukammal o'rganishni taqazo etadi. Mukammal o'rganish uchun esa albatta qiyos zarur. Shundan kelib chiqib, biz ushbu maqolada ingliz tilidagi antroponimlarda erkalash kichraytirish formalarining ifodalanishini tadqiq qilamiz.

TILSHUNOSLIK

Soʻz yasalishi barcha tillar tizimiga xosdir, chunki soʻz yasash jarayonining oʻzi doimiy harakatda boʻlib, soʻz yasash vositalarining oʻzi dinamik ravishda rivojlanib boradi. Shu asosda leksik birliklar yaratiladi va u yoki bu tilning soʻz boyligi boyib boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oʻzbek til sohiblarilarining madaniy-lisoniy ongida *Xasan – aka, Xusan – uka yoki Fotima – opa, Zuhra – singil* kabi stereotiplar mavjud boʻlib, bu oʻzbek xalqi uchun uchun birdek tushunarlidir. Mazkur lingvokognitiv hodisaning lingvistik va ekstralingvistik omillarini tadqiq qilish maqsadida egizaklar ismlarini oʻrganishdan aval, *egiz, egizak* leksemalarini tahlilga tortish maqsadga muvofiqdir.

Tilshunos olim Sh.Rahmatullayevning “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati”da egizak soʻziga quyidagicha tavsif beriladi: “**Egiz** – “birga tugʻilgan ikki farzand”. Bu soʻz qadimgi turkiy tilda bir bilan uch oraligʻidagi butun miqdorni bildiruvchi iki sonidan “juft” maʼnosini ifodalovchi - z qoʻshimchasi bilan hosil qilingan; keyinchalik soʻz boshlanishidagi *i* unlisi *e* unlisiga, ikki unli oraligʻidagi *k* undoshi *g* undoshiga almashgan: iki+z = ikiz > ekiz > egiz”[6;459]. Darhaqiqat, usmonli turklar tilida hozirda ham *ikiz, uchiz* (uchta chaqaloq), *toʻrtiz* (toʻrtta chaqaloq) soʻzlarining mavjudligi olimning fikrini tasdiqlaydi.

M.Koshgʻariyning “Devoni lugʻotit turk” asarining 1-jildida berilgan *ikkiz ogʻlan – egizak bola* izohi ham yuqoridagi fikrimizning dalilidir [5]. *Egiz* soʻzi hozirda, asosan, egizak shaklida qoʻllanadi.

R.Ikromovning fikriga koʻra, A.Kononov *-a(q), -a (k)* affikslarini otlarda subyektiv baho ifodalovchi affikslar qatoriga kiritadi va bunga *boshqoq, sharsharak, tikanak, egizak, oynak* kabi misollarni keltiradi. A.Gʻulomov esa *-q, -k* affikslarini kichraytish-erkalash maʼnosiga ega boʻlgan affikslar qatorida koʻrsatadi va misol tariqasida *bugʻdoyiq, ipak, tikanak* kabi soʻzlarni keltirib oʻtadi [4;36] va tadqiqotchi bu fikrlarga nisbatan oʻz munosabatini quyidagicha bildiradi: “Har ikkala tilshunos tomonidan keltirilgan misollarning koʻpida kichraytish-erkalash maʼnosi yoʻqolgan. Faqat *tikanak* soʻzidagina qisman kichraytish maʼnosi saqlanib qolgan boʻlishi mumkin. *Oynak, ipak, kuzak, yoʻlak* kabi formalar hozirgi tilda kichraytish-erkalash maʼnolarini ifodalamaydi [4;37]”. Haqiqatan, egiz – egizak soʻzlari biri-biriga nisbatan qarama-qarshi qoʻyilsa, bir qarashda ular oʻrtasidagi farq sezilmasligi mumkin. Biroq, bizningcha, bundan boshqa keltirilgan soʻzlarda kichraytirish maʼnosi mantiqan saqlanib qolgan. Negaki, *bosh – boshqoq, sharshara –sharsharak, tikan – tikanak, oyna – oynak, ip – ipak, kuz – kuzak, yoʻl – yoʻlak* kabi soʻzlar oʻzaro taqqoslansa, ular orasida subyektiv baho ottenkasi yaqqol namoyon boʻladi.

Eshqobil Shukur “*inak*” soʻzini tavsiflab shunday yozadi: “Tariximizda sigir “*inak*” degan soʻz bilan ham ifodalangan. Hozir ham mamlakatimizning janubiy viloyatlarida sigirni “*inak*” deyishadi. Bir qator turkiy xalqlar “*inak*” soʻzini qoʻllaydi. Bolaligimda shom chogʻlarida inak sogʻayotgan ayollarning sigirni iydish uchun alqab “Hoʻ-oʻsh, hoʻ-oʻsh, enam-ov, hoʻ-oʻsh” deb kuylashlari esimda qolgan. Inakni ena deyish bizda azaldan boʻlgan... Qadimda “*ena*” soʻzining “*ina*” shakli boʻlgan (“*ini*” soʻzi ham “*ina*”ga yaqin). Xuddi shu “*ina*” soʻziga erkalovchi “**-ak**” qoʻshimchasi qoʻshilishi bilan “*inak*” soʻzi paydo boʻlgan. Taniqli sharqshunoslardan Vilgelm Shott, Vilgelm Bang va Andrey Kononovlar izoh beradilar”[10] Mazkur izohdan anglashiladiki, **-a(k)** affiksi *egizak, inak* kabi soʻz shakllarda saqlanib qolgan boʻlsa-da, erkalash-kichraytirish maʼnosini yoʻqotgan. Bu holatda Sh.Rahmatullayevning “egizak soʻzini chaqaloqlarga nisbatan ishlatish toʻgʻri” [6.459] degan fikri oʻz kuchini yoʻqotadi va hozirda bu soʻz chaqaloqlarga ham, katta yoshdagi egizlarga ham birdek qoʻllanilayotgani mazkur fikrni isbotlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Oʻzbek mentalitetida egizak ismlar diniy-madaniy kodlar asosida shakllanganini kuzatish mumkin. “Hasan-Husanning asl toʻgʻri shakli Hasan-Husayndir. Hasan ismi chiroyli, goʻzal maʼnolarini bildiradi. Husayn esa uning *musagʻgar, yaʼni sagʻir(kichik)lashtirilgan* shakli boʻlib, **chiroylicha, goʻzalcha** degan maʼnoni bildiradi. Paygʻambarimiz... Fotima qizlarining birinchi farzandlariga *Hasan*, bir yil oʻtib tugʻilgan ikkinchi farzandlariga *Husayn* deb ism qoʻyganlar. Bular egizak emas, balki oralarida bir yosh farq bor aka-ukadirlar! Chunki, Nabiy sollallohu alayhi va sallamning egizak nabiralari boʻlmagan [1]. Demak, ular egizak boʻlmasalar-da, ismlarning qoʻyilish navbatida “kichik” semasiga asoslanilganligi maʼlum boʻladi.

Fotima-Zuhra ham aslida egizak qizlarga qoʻyilgan ism emas. Asli uning lafzan toʻgʻri shakli *Fotimai Zahro* boʻlib, u Nabiy sollallohu alayhi va sallamning qizlari Fotima onamizning ism va

sifatlaridir. *Fotima* ismlari, *Zahro* esa sifatlaridir. *Zahro yuzidan nur taraluvchi, yorqin, go'zal yuzli* kabi ma'nolarini bildiradi. Demak, Fotimai Zahro degani "nur yuzli Fotima xonim" degani ekan. Zero, Nabiy sollallohu alayhi va sallamning egizak qizlari bo'lmagan [1].

O'zbek tilida bu ismlar *Xasan-Xusan, Fotima-Zuhra, Xasan-Zuhra, Fotima-Xusan* tarzida qo'yiladi. Shu bilan birga, uchtalik, to'rttalik egizaklar ham, bir oilada ketma-ket ikki marta egizaklar tug'ilishi holatlari ham uchrab turadi. Bularga ham o'ziga xos nom qo'yish an'analari mavjud bo'lgan. Masalan, uch qiz bo'lsa – *Fotima-Zuhra-Zahro*; uch o'g'il bo'lsa – *Xasan-Xusan-Husayn*; birinchi egizaklarga *Hasan-Husan, Fotima-Zuhra* deb ism qo'yilgan bo'lsa, ikkinchi egizaklarni ajratish uchun *Muhammad Hasan-Muhammad Husan, Shohasan-Shohusan, Xasancha-Xusanacha, Bibi Fotima-Bibi Zuhra* deb nomlashgan.

Rus tilida esa egizaklarga ohangdosh va bir-biriga o'xshash ismlarni berish juda ommabop variant hisoblanadi. Bunda ismning to'liq shakli haqida ham, erkalash-kichraytirish shakli haqida ham gapirish mumkin. Bunga oxiri bir-xil harflar bilan tugovchi *Савелий va Валерий, Ростислав va Ярослав, Тимофей va Матвей, Михаил va Даниел, Захар va Назар, Алексей va Сергей, Платон va Антон* kabi ismlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Ismlarning qisqargan shakllari ularning qofiyadoshligi asosida ham tanlanishi mumkin: *Тима va Дима* (Тимофей va Дмитрий), *Тиша va Миша* (Тихон va Михаил), *Паша va Саша* (Павел va Александр), *Тёма va Дёма* (Артём va Демян) kabi.

Rus tili sohiblari orasida etnomadaniy kodlar asosida ham ism tanlash an'anasi mavjud:

a) ismlarning etnik kelib chiqishi asosida: *Святослав va Владимир* (slavyancha), *Игорь va Олег* (skandinavcha);

b) aynana bir sohada shuhrat qozongan mashhur shaxslarning nomlari asosida: *Кирилл va Мефодий* (ilk bosma nashr kashfiyotchilari), *Никита va Илья* (pahlavonlar).

Lekin, ba'zi boshqa manbalarda egizaklar ismlarining asoslari quyidagicha ko'rsatiladi:

a) **an'anaviy nomlar** (*Адам va Ева*);

b) **alliterativ ohangdoshlik asosidagi nomlar** (*Ваня va Василиса*);

d) **qofiyadosh nomlar, bu usulda bo'g'inlarning teng miqdorda bo'lishiga e'tibor qaratiladi:** (*Саша va Маша, Виктория va Валерия, Марина va Полина*);

e) **anagrammalar** - so'z yoki so'z birikmasidagi tovush yoki harflarning o'rnini almashtirish orqali boshqa so'z yoki birikma hosil qilish usuli (*Инна va Нина*) [9].

Rus tilida ham uchtalik egizaklarni nomlashning o'ziga xos usullari mavjud: *Татьяна - Ульяна - Марианна; Мирослав - Владислав - Ярослав; Ярослав - Святослав - Вячеслав*.

Ingliz tilida egizaklarga, odatda, quyidagicha ismlar beriladi:

Qiz egizaklar uchun:

1. Isabella va Sophia.
2. Faith va Hope.
3. Rose va Lily.
4. Alexandra va Charlotte.
5. Hailey va Hannah.
6. Eve va Zoe (ikkala ism boshqa-boshqa tillarda "hayot" ma'nosini anglatadi).
7. Ava va Emma.
8. Heaven va Nevaeh.
9. Madison va Morgan.
10. Olivia va Sophia.

O'g'il egizaklar uchun:

1. Matthew va Michael.
2. Jacob va Joseph.
3. Benjamin va Brian.
4. Elijah va Isaiah.
5. Finn va Liam.
6. Ethan va Evan.
7. Logan va Lucas.
8. Curtis va Cooper.
9. Jet va Jasper (ikkisi ham qimmatbaho tosh nomlari).

TILSHUNOSLIK

10. Caleb va Joshua.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, rus tilida egizaklarga ism qo'yishda ikkinchi yoki uchinchi ismning aynan kichraytirish (yoki kichiklik) ma'nosi hisobga olinmaydi.

Ismlarning rus tiliga xos erkalash-kichraytirish shakllari til tashuvchilarining milliy-lisoniy ongida bolaga nisbatan erkalash-kichraytirish mazmunini anglatsa, katta yoshdagilarga nisbatan so'zlovchining subyektiv munosabatini ifodalaydi. Ismning erkalash shakli yordamida, odatda, tinglovchiga nisbatan yumshoq munosabat bildiriladi. Biroq, rasmiy muloqot sharoitida "ism+ota ismi" tarzidagi murojaat birligida erkalash-kichraytirish shakli qo'llanmaydi. Masalan, OAV matnlari yoki ommaviy yig'ilishlarda shaxsning ismi-sharifini *Вова Петрович* shaklida qo'llab bo'lmaydi [8].

Ismlardagi erkalash-kichraytirish shakllari grammatik va semantik asosga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Erkalash-kichraytirish shakllari ismning oxiri tushirib qoldirilib, asosga *-очк-, -ечк-, -оньк-, -еньк-, -ушк-, -юшк-, -юш-, -яш-, -уш-, -ул-, -ун-, -ус-, -к-, -ик* kabi suffikslarni qo'shish orqali hosil qilinadi:

- **очк:** *Шурочка, Галочка;*
- **енк:** *Сашенька, Машенька;*
- **ушк:** *Лёвушка;*
- **уш, - юш:** *Марфуша, Андрюша.*

Ismning grammatik qo'shimchasiz qisqartirilgan shakli ham kichraytiruvchi nom hisoblanadi. Masalan, *Александр - Саша, Иннокентий - Кеша, Екатерина - Катя, Анастасия - Настя.*

O'zbek tili og'zaki so'zlashuv nutqida ham ismlarni qisqartirish odati mavjud bo'lib, bu holatga milliy til xususiyatiga ko'ra salbiy hodisa sifatida qaraladi: *Fotima – Foti, Nafisa – Napi, Sohiba – Sohi, Dilmurod – Dilish.*

Ingliz tilida, rus tilidan farqli o'laroq, ismlarning erkalash-kichraytirish shakllari qo'shimchalarni qo'shish orqali hosil bo'lmaydi. Ismlarning shunchaki imlo va talaffuzdagi qisqartirilgan analoglari bor. Bundan tashqari, ingliz tilida nutq qoidalari rasmiy identifikatsiya hujjatlarida qisqartirilgan nomlardan foydalanishga imkon beradi. Misol uchun, AQSh fuqarolik pasportlarida *Tim* (to'liq *Timoty*) yoki *Nikkie* (Nicoledan) va *Vicky* (Victoriadan) kabi ismlarni uchratish mumkin [8].

Dunyoning boshqa millatlari, masalan ispaniyada kundalik muloqotda kichraytirish vositalaridan keng foydalaniladi. Ispanlar erkaklar ismlariga "-ito", ayollarning ismlariga "-ita" qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi. Masalan: Ana - Anita, Pablo - Pablito. Nemis nutqi yanada o'ziga xosdir: insonga nisbatan har xil munosabat uchun tilda bir xil nomdagi turli xil modifikatsiyalar mavjud. Buni chalkashtirib yuborish mumkin emas va faqat ushbu til xususiyatlari bilan tanish bo'lmagan odam (masalan, nemis tilini bilmaydigan chet ellik) uni noto'g'ri ishlatishi mumkin: masalan, to'liq ismi - *Сернеко*, kichraytiruvchi shakli - *Сернекоця*.

XULOSA

Ismlardagi erkalash-kichraytirish shakllari har-bir tilning o'ziga xos milliy, madaniy, diniy va etnik xususiyatlariga ko'ra turlicha shakllanadi. Biz ularni yuqorida bir necha tillarda berishilishi ko'rib chiqdik.

Turli tillarda ismlarning kichraytiruvchi, erkalovchi shakllari mehrni ifodalash, tanishlik yoki mehr-muhabbatni ifodalash uchun ishlatilishi mumkin. Bu erkalovchi shakllar ko'pincha qo'shimcha qo'shadi yoki asl ismning oxirini o'zgartiradi. Turli til tizimlarining kishi ismlarida kichraytiruvchi va erkalovchi ma'nolarini ifodalashida misollarni izohladik. Bular turli tillarda kishi ismlarida kichraytiruvchi, erkalovchi ma'nolarni ifodalashiga bir necha misoldir. Muayyan kichraytiruvchi shakllar madaniy kontekst va shaxsiy imtiyozlarga qarab farq qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bahodir Bahromjon o'g'li. Egizaklarga Hasan-Husayn va Fotima-Zahro deb nom qo'yish // <https://www.savol-javob.com/egizaklarga-hasan-husayn-va-fotima-zahro-deb-nom-go%CA%BCyish/> (Bahodir Bahromjon ogli. Naming the twins Hasan-Husayn and Fatima-Zahro) <https://www.savol-javob.com/egizaklarga-hasan-husayn-va-fotima-zahro-deb-nom-go%CA%BCyish/>
2. Davlatova, H. (2021) Psycholinguistic research of children's speech by scientists. Researchjet Journal of Analysis and Inventions. (2) DOI: <https://doi.org/10.17605/osf.io/ud96m>
3. Davlatova, H. BOLALARNING AQLI VA NUTQI RIVOJLANISHIDA OILANING TA'SIRI. Scientific journal of the Fergana State University, 2022, (1), 51-51. (INFLUENCE OF THE FAMILY ON THE INTELLIGENCE AND SPEECH DEVELOPMENT OF CHILDREN Scientific journal of the Fergana State University, 2022, (1), 51-51)

4. Ikromova R. O'zbek tilida otlarning sintetik, analitik va funktsional formalari. Toshkent: Fan, 1985. – B. 120 (Ikromova R. Synthetic, analytical and functional forms of nouns in Uzbek language. Tashkent: Fan, 1985 – P 120)
5. Qoshg'ariy M. Devoni lug'otit turk. Uch jildlik. I jild// Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. T.: Fan, 1960. –B.160 (Kashgari M. The dictionary of Turkic languages (“Divan lugat at-tyurk”. Three volumes. Volume I –P.160)
6. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati.1-jild, Toshkent: Universitet, 2000. –B.600 (Etymological dictionary of the Uzbek language. Volume 1 Tashkent: University, 2000 –P. 600)
7. Uktamovna, H. D. (2019). OPPORTUNITIES FOR ENGLISH-SPEAKING VOICES IN THE SPEECH OF CHILDREN OF THE FIRST SCHOOL AGE. PROBLEMS AND SOLUTIONS OF ADVANCED SCIENTIFIC RESEARCH, 1(1), 226-229.
8. <https://dzen.ru/a/XmcAeQ2mayqBOKnx>
9. https://posmotreli.su/index.php/Похожие_имена_у_близнецов
10. <https://uza.uz/uz/posts/-09-03-2020>